ONA TILI DARSLARIDA ISHORAVIY XATOLAR USTIDA ISHLASH

Kalbaeva Miyassar Aliger qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning ishoraviy xatolarini aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari yoritilgan. Ishoraviy xatolarning kelib chiqish sabablari, ularning nutq madaniyati va yozma savodxonlikka ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida samarali pedagogik texnologiyalar, amaliy mashqlar va interaktiv usullar orqali o‘quvchilarning to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *punktuatsiya, ishoraviy xatolar, yozma savodxonlik, yozma nutq, imlo, nutq madaniyati, pedagogik texnologiya, interaktiv usullar, punktuatsion tahlil, punktuatsion xatolar, mashqlar, ta’lim jarayoni, topshiriq.*

Annotation:*This article discusses methods for identifying, analyzing, and correcting students’ punctuation and symbolic errors in mother tongue lessons. The causes of such errors, as well as their impact on speech culture and written literacy, are analyzed. In addition, the article highlights ways of developing students’ correct writing skills through effective pedagogical technologies, practical exercises, and interactive methods used during the learning process.*

Keywords: *punctuation, symbolic errors, written literacy, written speech, spelling, speech culture, pedagogical technology, interactive methods, punctuation analysis, punctuation mistakes, exercises, educational process, assignment.*

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlay oladigan, savodli shaxs sifatida tarbiyalash. Ona tili darslari ana shu maqsadni amalga oshirishda asosiy o‘rin tutadi. Ona tilini puxta o‘zlashtirish nafaqat grammatik qoidalarni bilish, balki fikrni aniq, ravon va to‘g‘ri ifodalay olishni ham talab etadi.

Yozuvda orfografiyani to‘g‘ri qo‘llash qanchalik zarur bo‘lsa, tinish belgilarini o‘z o‘rnida ishlatish ham shu qadar muhimdir. Chunki tinish belgilari yozma nutqda gap bo‘laklaridan tortib, to murakkab gaplargacha nutqni bog‘lanishli qismlarga ajratish uchun xizmat qiladi. O‘quvchilarga punktuatsiyani o‘rgatish ona tili o‘qitishning eng murakkab sohasi hisoblanadi. Bu vazifa sintaksis bo‘limini o‘qitish bilan amalga oshiriladi. Chunki sintaksisga oid mavzularning barchasi punktuatsiya bilan bog’lab o‘tiladi. Tinish belgilari bilan bog‘liq qoidalar tilshunoslik bo‘limidagi mavzular asosida tuziladi va mana shu kurs asosida amalga oshiriladi.

O‘quvchilar yozma ishlarida uchraydigan ishoraviy xatolar ularning savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday xatolar matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi, fikrning aniq ifodalanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ona tili darslarida ishoraviy xatolar ustida muntazam ish olib borish, ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ishoraviy xatolar ustida ishlash jarayoni o‘quvchilarning nafaqat yozma savodxonligini, balki nutq madaniyatini ham rivojlantiradi. O‘qituvchi har bir darsda o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilib borishi, ularning sabablarini aniqlashi va maqsadli mashqlar orqali to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantirishi lozim. Ishoraviy xatolar deganda yozuv jarayonida tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llamaslik va punktuatsiya qoidalariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladigan kamchiliklar tushuniladi. Bu xatolar turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi va o‘quvchining til materialini qay darajada o‘zlashtirganini ko‘rsatadi. O‘quvchilarda ishoraviy xatolarning yuzaga kelish sabablari turlicha bo‘ladi. Avvalo, bu holat o‘quvchining qoidalarni yetarlicha o‘zlashtirmaganligi bilan bog‘liq. Ayrim hollarda esa o‘quvchining diqqatsizligi yoki kitobxonlik madaniyatining pastligi ham xatolarga sabab bo‘ladi. Ishoraviy xatolarning kelib chiqishiga ko‘pincha quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin:

- punktuatsion qoidalarni yaxshi bilmaslik;

- kitob mutolaasining kamligi;

- og‘zaki nutq ta’siri;

- dars jarayonida mashqlarning yetarli emasligi;

- e’tiborsizlik va shoshqaloqlik.

O‘quvchilarning punktuatsion savodxonligi nazorat ishlar, turli tipdagi diktantlar, bayon, insho, esse, uyda va sinfda bajarilgan amaliy mashqlar orqali tekshiriladi.

- Punktuatsion xatolarning quyidagi tiplari mavjud:

1. Kerakli tinish belgini qo‘ymaslik. Masalan, *Kitob bilim bulog‘i. (*Aslida, *Kitob- bilim bulog‘i).*

2. Tinish belgini almashtirish, ya’ni birining o‘rinida ikkinchisini ishlatish. Masalan, *Mening jaydari falsam shu – hargiz iltimosga kuning qolmasin. (*Aslida, *Mening jaydari falsam shu: hargiz iltimosga kuning qolmasin).*

3. Tinish belgisini ortiqcha qo‘llash. Masalan, *Men O‘zbekistondagi qadimiy shaharlar: Samarqand, Buxora, Xivalarni, aylanib chiqdim. (* Aslida*, Men O‘zbekistondagi qadimiy shaharlar: Samarqand, Buxora, Xivalarni aylanib chiqdim).*

4. Belgilardan birini tushirib qoldirish. Masalan, *«Ilm baxt keltiradi»**,** deydi dono xalqimiz. (* Aslida, *«Ilm baxt keltiradi»**,** - deydi dono xalqimiz).*

5. Tinish belgilarini ishlatishda izchillikning yo‘qligi. Masalan, ayni bir xil gap qurilmasida bir safar tinish belgisini to‘g’ri qo‘yib (*Hamal keldi-amal keldi*), ikkinchi safar xuddi shunday tipdagi gaplarda boshqa tinish belgisini qo‘yish (*Hamal keldi, amal keldi).*

Punktuatsion xatolarni tekshirish va baholashda alohida pedagogik, metodik mahorat va lisoniy sezgirlik zarur. Chunki punktuatsion mashg‘ulotlarning asosiy

maqsadi shunday xatolarning oldini olish, bartaraf qilishdan iboratdir.Agar o‘quvchi u yoki bu tinish belgini nima uchun, qayerda qo‘llash kerakligini bilmasa, metodik meros uni qo‘ymaslikni ma’qul deb hisoblaydi. Chunki zarur belgini qo‘ymay, uning o‘rnida boshqasini ishlatish undan jiddiyroq xatoni keltirib chiqarishi mumkin. U ham o‘quvchining, ham o‘qituvchining ishini murakkablashtiradi. Agar o‘quvchi gapda bir tinish belgini qo‘ymasa, u shunga oid qoidani yaxshi o‘zlashtirmagan yoki bilmaydi. Aksincha, tinish belgisini ortiqcha ishlatsa, belgini asossiz qo‘llashga odatlanib ketadi. Shuning uchun har ikkala xato ustida ham alohida mashg‘ulotlar o‘tkazish lozim.

O‘qituvchi o‘quvchilarning punktuatsion xatolarini hisobga olib qo‘yish bilangina kifoyalanmasligi kerak. Tinish belgilar ustida o‘tkazilgan tahlil jarayonida o‘sha xatolarning paydo bo‘lish sabablarini o‘rganib, keyin bolaga tushuntirishi lozim. Ana shundagina maktab o‘quvchisi punktuatsion belgilarni ongli ravishda qo‘llanishga odatlanadilar.

Punktuatsion xatolarini tahlil qilishni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- ✓ punktuatsion xato qilingan gapni o‘quvchi ifodali o‘qiydi. O‘qituvchi diktovkasi asosida taxtaga yozadi. O‘quvchi belgini ishlatishda nima uchun xato qilgan, buning sababi izohlanadi;
- ✓ ayni xato ko‘pchilik o‘quvchi tomonidan yuborilgan bo‘lsa, o‘sha gapga o‘xshash misollar topib o‘zlariga yozish topshiriladi va misol tariqasida ma’lum bir gaplar tahlilga tortiladi;
- ✓ yozma ishlardagi tipik punktuatsion xatolarga oid qoidalar eslatiladi, shu asosida o‘quvchilar o‘z xatolarini tuzatadilar;
- ✓ individual va umumiy xarakterdagi uy vazifasini topshirish orqali.

Nazorat ishdagi punktuatsion xatolarning hammasini bir darsda tahlil qilish mumkin emas. Unda eng tipik xatolar ustidagina ish olib boriladi. Ayrim o‘quvchilargagina xos xatolar yuzasidan esa o‘sha o‘quvchilarga mustaqil ish berish, maxsus qo‘shimcha darslar tashkil etish shart. O‘qituvchi ishoraviy xatolar ustida

ishlash jarayonida asosiy rahbar hisoblanadi. U o‘quvchilarning bilim darajasini hisobga olgan holda mashqlar tanlashi, xatolarni individual tarzda tahlil qilishi va samarali usullardan foydalanishi kerak. Bunda o‘qituvchi quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi lozim:

-har bir o‘quvchining xatosini aniqlash;

- xatolarning sababini tushuntirish;

- individual yondashuvni qo‘llash;

- qiziqarli mashqlardan foydalanish;

- o‘quvchilarni kitobxonlikka jalb qilish. ‘

Ayniqsa, kitob mutolaasi o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiradi va to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchilarni barcha til va adabiyot darslarda badiiy asarlarni muntazam o‘qishga qiziqtirishi kerak. Punktuatsion mashg’ulotlarning samaradorligi darsning jihozlanishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ayni maqsadda tinish belgilarni o‘rgatishga qaratilgan ko‘rgazmali qurollar, kartochkalardan o‘rinli va unumli foydalanishimiz zarur. Bunday ko‘rgazmali materiallar sintaksis bo‘limidagi deyarli hamma mavzular yuzasidan tayyorlanishi mumkin. Masalan, gapning uyushiq bo‘laklari, uyushiq bo‘laklarda umumlashtiruvchi so‘z va undagi tinish belgilar, undalma, kirish so‘z, ko‘chirma gap, qo‘shma gap va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida ishoraviy xatolar ustida ishlash o‘quvchilarning savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ishoraviy xatolarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi shakllanadi, nutq madaniyati rivojlanadi. O‘qituvchi dars jarayonida turli

metod va texnologiyalardan samarali foydalanishi, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Interaktiv usullar, diktantlar, tahlil mashqlari va axborot texnologiyalari ishoraviy xatolarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ғ.Абдураҳмонов. Пунктуация ўқитиш методикаси, Тошкент, 1968.
2. К.Назаров.Ўзбек тили пунктуацияси асослари .Тошкент, 1971,14-15-бет
3. Ш. Шоабдураҳмонов . Ўзбек тилида пунктуация.Тошкент, 1961
4. К. Назаров , Б.Эгамбердиев . Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. Тошкент, «Ўқитувчи», 1996, 3-бет.
5. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2006 -yil
6. Mirzaqulov T. Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari. Toshkent, "O‘qituvchi" nashriyoti, 1994 -yil.
7. Rajapova K. M. Nutqiy ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi. Monografiya. –T.: «Firdavs Shoh nashriyoti», 2025 -yil
8. Ne’matov H., G‘ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi,1996.
9. Hamroev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. - T.: Bayoz, 2018.